



## XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 30 - dekabr

VI-75-211-7-93-K/22

Bulung'ur tuman hokimligi

### **2022-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar va bajarilgan ishlar yuzasidan tuman ishchi guruhining 4-chorak hisoboti to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-aprelda "Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5072-sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi "Mahalliy budget mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi KQ-213-IV-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-sentabrdagi "Ochiq budget" axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5250-sonli qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida, tuman hokimligi moliya bo'limi mudiri J.Narziyevning hisobotini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 24-moddasiga muvofiq, xalq deputatlari Bulung'ur tuman Kengashining yetmish beshinchi sessiyasi

### **QAROR QILADI:**

1. 2022-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar va bajarilgan ishlar yuzasidan tuman hokimligi moliya bo'limi mudiri Narziyev Jamshid Sattarovichning 4-chorak hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman ishchi guruhining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar va bajarilgan ishlar to'g'risidagi hisoboti 1-ilovaga, tashabbusli budjetlashtirish bo'yicha ma'lumotlar 2-3-ilovaga, fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirilishi yuzasidan ma'lumot 4-ilovaga, fuqarolar tashabbusi jamg'armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan ma'lumot

5-ilovaga, tuman hokimligi moliya bo‘limining 2022-yil iyul-sentabr oyida bo‘lib o‘tgan “Ochiq budjet” jarayonida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga yo‘naltiriladigan mablag‘lar miqdori bo‘yicha taklifi ma‘qullansin va 6- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Jabborov), “Bulung‘ur hayoti” gazetasi (G‘.O‘ralov)larga tuman ishchi guruhi hisobotidan keng jamoatchilikni xabardor etish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Nomazov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Xabibullayev) zimmalariga yuklatilsin.

**Kengash raisi**



**S.Astonov**

Xalq deputatlari Bulung'ur  
tuman Kengashining  
2022 yil 30 dekabrda  
VI-75-211-7-93-K/22-son  
qaroriga  
1-ilova

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-son [qarori hamda va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi "Mahalliy Budget mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi KQ-213-IV-son qarorlariga asosan](#) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi "Ochiq Budget" axborot portalini ishga tushirdi.

"Ochiq Budget" portalining tashkil etilishidan maqsad bevosita fuqarolar tashabbus va talablarini inobatga olgan holda hududlardagi kamchiliklarni bartaraf etishdan iborat.

Fuqarolar tomonidan bildirilgan takliflarni amalga oshirish uchun tuman hokimligida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" shaxsiy g'azna hisobvarag'i shakllantirildi. Ushbu jamg'armaga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustdagi "Budget ma'lumotlarining ochiqligini va Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-sonli qaroriga asosan 2022-yil tuman budgetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foizi yanvar oyida 4295.3 mlrd.so'm, iyul oyida 4291.7 mlrd.so'm, 2022-yil 1-yanvar holatiga erkin qoldiq mablag'larining 30 foizi 1725.5 mlrd.so'm, 2022-yil 1-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismining 30 foizi 683.5 mln.so'm 2-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismining 30 foizi 601.9 mln.so'm 3-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismining 30 foizi 738 mln.so'm mablag'lar Xalq deputatlari tuman Kengashining qarorlariga asosan o'tkazilishi ta'minlandi.

"Ochiq Budget" axborot portalini 1-mavsumi 3-bosqichda amalga oshirildi:

1-bosqich. Fuqarolar tomonidan "Ochiq Budget" axborot portaliga loyiha takliflari joylashtirildi. Bu jarayon joriy yilning 1-fevraldan 22-fevralgacha davom etdi. Fuqarolar tomonidan shu vaqt oralig'ida 418 ta takliflar kelib tushdi.

2-bosqich. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi "Mahalliy Budget mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi KQ-213-IV-son qarori va bu boradagi Xalq deputatlari tuman Kengashining 2021-yil 23-apreldagi "Mahalliy Budget mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi 189/31-sonli qarori bilan tuman hokimligida tuzilgan ishchi guruh fuqarolar tomonidan "Ochiq Budget"

axborot portaliga joylashtirilgan loyihalarni mezon me'yorlariga asosan tanlab olishdi. Jarayon joriy yilning 23-fevraldan 4-martgacha davom etdi. Bunda ishchi guruh tomonidan takliflarning mezonga mosligi va taklif loyihalarining summasiga aniqlik kiritildi. Ushbu jarayonda ishchi guruh tomonidan qiymati 46,3 mlrd so'mlik 111 ta takliflar ovoz berish uchun yakuniy bosqichga o'tkazildi va taklif mualliflarining shaxsiy kabinetiga takliflari ovoz berish uchun qabul qilinganligi to'g'risida xabarnomalar yuborildi. Qolgan 307 ta taklif mezon talablariga to'g'ri kelmaganligi va bir-birini takrorlaganligi hamda taklifning amalga oshirish qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 4 ming barobaridan oshganligi sababli rad javobi berildi va taklif bergan fuqarolarning shaxsiy kabinetiga rad etishning sabablari to'g'risida xabarnomalar yuborildi.

3-bosqich. Ishchi guruh tomonidan mezon me'yorlariga asosan tanlab olingan loyihalar "Ochiq Budjet" axborot portaliga ovoz berish uchun joylashtirildi. Jarayon joriy yilning 5-martdan 4-aprelgacha davom etdi. Bu jarayonda tumanimizning 31620 dan ortiq fuqarolari o'zlariga ma'qul bo'lgan taklifga ovoz berib faol ishtirok etishdi.

Yakuniy xulosa ovozlar soniga ko'ra, yuqoridan pastga tamoyili asosida shuningdek "Fuqarolar tashabbusi" jamg'armasida shakllangan mablag'lar hajmidan kelib chiqib aniqlandi. Bunda eng ko'p ovoz to'plagan 7 ta taklif g'olib deb topildi.

Xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 12-apreldagi IV-60-76-7-93-K/22-sonli qarori bilan "Fuqarolar tashabbusi" jamg'armasida shakllangan mablag'lar hisobidan 1-o'rin A.Navoiy mahallasidagi 69-maktabni rekonstruksiya qilish uchun 1,0 mlrd.so'm mablag'lar ajratildi. Davlat xaridlari portalidan "Bulung'ur Asr Qurilish" MChJ tomonidan yutib olinib 926,2 mln.so'mlik ishlar bajarildi va ishlar yakunlandi. 2-o'rin "Changal-1" MFY hududida joylashgan Eshon qishloq ichidan O'roqli mahallasi Olqortepa qishlog'i kesishmasigacha bo'lgan 1.7 km ichki yo'lni asfalt qilish uchun 950,0 mln so'm mablag'lar ajratildi. Davlat xaridlari portalidan "Sam Shoxinur Qurilish" MChJ tomonidan yutib olinib 937.5 mln so'mlik ishlar bajarildi va ishlar yakunlandi. 3-o'rin "Kaptarxona" mahallasi Qirqaxmad qishlog'idagi (yuqori ovul) ichki yo'lni asfalt qilish uchun 500,0 mln so'm mablag'lar ajratildi. Davlat xaridlari portalidan "Sam Shoxinur Qurilish" MChJ tomonidan yutib olinib 494.6 mln so'mlik ishlar bajarildi va ishlar yakunlandi. 4-o'rin "Bulung'urariq" mahallasi 51-sonli maktabning sport maydonida bolalarni sog'lom turmush tarziga va sport bilan shug'ullanishga targ'ib qilish ishlarini yanada takomillashtirish uchun 900,0 mln.so'm mablag'lar ajratildi. Davlat xaridlari portalidan "Bulung'ur Asr Qurilish" MChJ tomonidan yutib olinib 822,4 mln so'mlik ishlar bajarildi va ishlar yakunlandi. 5-o'rin "Nebo'sa" mahallasi Nebo'sa qabristoniga olib boradigan ichki yo'lni asfaltlashtirish uchun 999,0 mln so'm mablag'lar ajratildi. Davlat xaridlari portalidan "Sam Shoxinur Qurilish" MChJ tomonidan yutib olinib 981.6

mln.so‘mlik ishlar bajarildi va ishlar yakunlandi. 6-o‘rin Bulung‘urariq” MFYning Jomonjor qishlog‘i Dongi ovul axolisini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash maqsadida suv qudug‘i hamda tarmoqlarni joriy etish uchun 490,0 mln so‘m mablag‘lar ajratildi. Davlat xaridlari portalidan “Universal Inshoat Stroy” MChJ tomonidan yutib olinib 470.2 mln so‘mlik ishlar bajarildi va ishlar yakunlandi. 7-o‘rin “Bulung‘urariq” Jomonjor qishlog‘i Pastki ovuldan o‘tuvchi qabristonga olib boruvchi 1.2 km ichki yo‘lni asfalt qilish uchun 550,0 mln so‘m mablag‘lar ajratildi. Davlat xaridlari portalidan “Sam Shoxinur Qurilish” MChJ tomonidan yutib olinib 539.0 mln.so‘mlik ishlar bajarildi va ishlar yakunlandi. 2022 yil 1-mavsumda g‘olib bo‘lgan 7 ta taklif bo‘yicha ishlar to‘liq yakunlanib foydalanishga qabul qilindi.

“Ochiq Budjet” axborot portalida 2-mavsumi 3-bosqichda amalga oshirildi:

1-bosqich. Fuqarolar tomonidan “Ochiq Budjet” axborot portaliga loyiha takliflari joylashtirildi. Bu jarayon joriy yilning 15-iyuldan 03-avgustgacha davom etdi. Fuqarolar tomonidan shu vaqt oralig‘ida 171 ta takliflar kelib tushdi.

2-bosqich. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi “Mahalliy Budjet mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta‘minlash to‘g‘risida”gi KQ-213-IV-son qarori va bu boradagi Xalq deputatlari tuman Kengashining 2021-yil 23-apreldagi “Mahalliy Budjet mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta‘minlash to‘g‘risida”gi 189/31-sonli qarori bilan tuman hokimligida tuzilgan ishchi guruh fuqarolar tomonidan “Ochiq Budjet” axborot portaliga joylashtirilgan loyihalarni mezon me‘yorlariga asosan tanlab olishdi. Jarayon joriy yilning 4-avgustdan 23-avgustgacha davom etdi. Bunda ishchi guruh tomonidan takliflarning mezonga mosligi va taklif loyihalarining summasiga aniqlik kiritildi. Ushbu jarayonda ishchi guruh tomonidan qiymati 104,4 mlrd so‘mlik 143 ta takliflar ovoz berish uchun yakuniy bosqichga o‘tkazildi va taklif mualliflarining shaxsiy kabinetiga takliflari ovoz berish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida xabarnomalar yuborildi. Qolgan 28 ta taklif mezon talablariga to‘g‘ri kelmaganligi va bir-birini takrorlaganligi hamda taklifning amalga oshirish qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 4 ming barobaridan oshganligi sababli rad javobi berildi va taklif bergan fuqarolarning shaxsiy kabinetiga rad etishning sabablari to‘g‘risida xabarnomalar yuborildi.

3-bosqich. Ishchi guruh tomonidan mezon me‘yorlariga asosan tanlab olingan loyihalar “Ochiq Budjet” axborot portaliga ovoz berish uchun joylashtirildi. Jarayon joriy yilning 24-avgustdan 17-sentabrgacha davom etdi. Bu jarayonda tumanimizning fuqarolari o‘zlariga ma‘qul bo‘lgan taklifga ovoz berib faol ishtirok etishdi.

Yakuniy xulosa ovozlar soniga ko‘ra, yuqoridan pastga tamoyili asosida shuningdek “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasida shakllangan mablag‘lar hajmidan

kelib chiqib aniqlandi. Bunda eng ko‘p ovoz to‘plagan 14 ta taklif g‘olib deb topildi. “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga” jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun jami 12.2 mlrd.so‘m mablag‘lar yo‘naltirildi.

Xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 30-sentabrdagi IV-70-165-7-93-K/22-sonli qarori bilan “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasida shakllangan mablag‘lar hisobidan 1-o‘rin G‘o‘bdin mahallasidagi G‘o‘bdin oilaviy shifokorlik punktini joriy ta‘mirlash 4419 ta ovoz, taklif summasi 500.0 mln.so‘m. Davlat xaridlari portalidan “Ishtixon Sherxon Fayz” MChJ tomonidan yutib olinib, 495,0 mln.so‘mlik ishlar bajarildi va ishlar yakunlandi. 2-o‘rin “Kichik Kildon” MFY hududidagi 42-maktabning 4 ta sinf xonasini jihozlash 3520 ta ovoz, taklif summasi 600.0 mln.so‘m. Davlat xaridlari portalidan reestrda belgilangan barcha jixozlar olinib, 503,7 mln.so‘mlik ishlar bajarildi va ishlar yakunlandi. 3-o‘rin “Esonturdi” mahallasi Zarafshon qishlog‘ining 1,0 km ichki yo‘lini asfalt qilish 3458 ta ovoz, taklif summasi 500.0 mln.so‘m. Davlat xaridlari portalidan “Sam Shoxinur Qurilish” MChJ tomonidan yutib olinib, 496.8 mln.so‘mlik ishlar bajarildi va ishlar yakunlandi. 4-o‘rin “O‘roqli” MFY Olqartepa qishlog‘i Sardoba ko‘chasini asfalt qilish 3444 ta ovoz, taklif summasi 800.0 mln.so‘m. Davlat xaridlari portalidan “Sam Shoxinur Qurilish” MChJ tomonidan yutib olinib, 796.2 mln so‘mlik ishlar bajarildi va ishlar yakunlandi. 5-o‘rin “Oqtepa” MFY hududidagi ichki yo‘lini asfalt qilish 3186 ta ovoz, taklif summasi 900.0 mln.so‘m. Davlat xaridlari portalidan “Nizomiddin Quruvchi” MChJ tomonidan yutib olinib, 899.1 mln.so‘mlik ishlar bajarildi va ishlar yakunlandi. 6-o‘rin “Elobod” MFYdagi Changalpayon qishlog‘ining ichki yo‘lini asfalt qilish 3094 ta ovoz, taklif summasi 1.2 mlrd.so‘m. Davlat xaridlari portalidan “Sam Shoxinur Qurilish” MChJ tomonidan yutib olinib, 374.8 mln so‘mlik ishlar bajarildi va ishlar davom etmoqda. 7-o‘rin “Bulung‘ur” MFYdagi tuman istirohat bog‘ini yanada obodonlashtirish ko‘kalamzorlashtirish 3093 ta ovoz, taklif summasi 1.2 mlrd.so‘m. Davlat xaridlari portalidan “Sam Shoxinur Qurilish” MChJ tomonidan yutib olinib, 385.0 mln so‘mlik ishlar bajarildi va ishlar davom etmoqda. 8-o‘rin “Changal-1” MFYdagi Yuqori Changal qabristoni yonidan o‘tuvchi va Yuqori Changal qishlog‘i ichki yo‘lini 2.1 km asfalt qoplamasi bilan qoplash 3090 ta ovoz, taklif summasi 1.2 mlrd.so‘m. Davlat xaridlari portalidan “Muslimbek Stroy Group” MChJ tomonidan yutib olinib, 1179.2 mln so‘mlik ishlar bajarildi va ishlar yakunlandi. 9-o‘rin “Changal-1” MFYdagi Eshon qishloq axolisi uchun 250 klavatli transformator, 150 dona beton stolba va 5000 metr kabel xarid qilish 3007 ta ovoz, taklif summasi 550.0 mln.so‘m. Davlat xaridlari portalidan reestrda belgilangan barcha jixozlar e‘londan yutib olingan, 113.4 mln.so‘mlik jixoz olib kelingan va tez kunlarda qolgan jixozlar olib kelinadi. 10-o‘rin “Suluvqo‘rg‘on” MFYdagi Uyas qishlog‘ini Qoroshqi qishlog‘iga bog‘lovchi yo‘lini asfalt qilish 2948 ta ovoz, taklif summasi 1,0 mlrd.so‘m. Davlat xaridlari portalidan “Muslimbek Stroy Group” MChJ tomonidan yutib olinib, 1179.3 mlrd so‘mlik ishlar bajarildi va ishlar yakunlandi. 11-o‘rin “Bulung‘urariq” mahallasi Jomonjar qishlog‘idagi 51-sonli

maktabga olib keluvchi 4k-518 yo‘l chekka qismidan ya’ni Erganakli qishlog‘i tugashidan Changal-1 mahallasigacha bo‘lgan masofada piyodalar yo‘lakchasi qurish 2923 ta ovoz, taklif summasi 1.2 mlrd.so‘mni tashkil etmoqda. Davlat xaridlari portalidan “Memor” X/k tomonidan yutib olinib, 372.4 mlrd so‘mlik ishlar bajarildi va ishlar davom etmoqda. 12-o‘rin “Erganakli” MFYdagi Erganakli patronaj punkitini joriy ta’mirlash 2861 ta ovoz, taklif summasi 550.0 mln.so‘m. Davlat xaridlari portalidan “Memor ” X/k tomonidan yutib olinib, 154.7 mln so‘mlik ishlar bajarildi va ishlar davom etmoqda. 13-o‘rin “Nurli Yo‘l” MFYdagi Tongotor qishlog‘ini ichki yo‘lini asfalt qilish 2265 ta ovoz, taklif summasi 1,176 mlrd.so‘m. Davlat xaridlari portalidan “Muslimbek Stroy Group” MChJ tomonidan yutib olinib, 233.5 mln so‘mlik ishlar bajarildi va ishlar davom etmoqda. 14-o‘rin “Dexqonobod” MFYdagi Rovot qishlog‘ining ichki yo‘lini asfalt qilish 2948 ta ovoz, taklif summasi 900,0 mln.so‘m. Davlat xaridlari portalidan “Muslimbek Stroy Group” MChJ tomonidan yutib olinib, 280.5 mln so‘mlik ishlar bajarildi va ishlar davom etmoqda. 14 ta taklifdan 7 ta taklif bo‘yicha ishlar to‘liq yakunlanib foydalanishga qabul qilindi. 2022 yil 2-mavsumda g‘olib bo‘lgan 7 ta taklif bo‘yicha yil yakuniga qadar foydalanishga topshirish choralari ko‘rilmogda.

Tashabbusli budjetlashtirish jarayonini amalga oshirish mexanizmi va uning mohiyatini aholi o‘rtasida tizimli ravishda keng yoritib borilishini ta’minlash maqsadida tuman hokimligi moliya bo‘limi tomonidan tuman hokimligining rasmiy veb-saytida o‘ndan ortiq maqola va video ro‘liklar joylashtirildi hamda “Bulung‘ur hayoti” gazetasida maqolalar chop etildi va bajarilgan ishlar natijasi bo‘yicha ommaviy axborot vositalarida yoritilishi ta’minlandi.

Xalq deputatlari Bulung'ur  
tuman Kengashining  
2022 yil 30 dekabrda  
VI-75-211-7-93-K/22-son  
qaroriga  
2-ilova

## Tashabbusli budjetlashtirish bo'yicha

### MA'LUMOT

Bulung'ur tumani

2022-yil dekabr

1-jadval

T/R	Ko'rsatkich nomi	Summa (ming so'm)
1	Yil boshiga qoldiq	4157.3
2	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga o'tkazilgan mablag'lar	21664.0
3	Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) Tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar	17665.0
3.1	Tadbirlarni amalga oshirayotgan pudratchi tashkilotlarga bajarilgan ishlar uchun to'langan mablag'lar	12 600.1
3.2	Tadbirlarni moliyalashtirishga ajratilgan, biroq pudratchi tashkilotlarga to'lab berilmagan qoldiq mablag'lar	5808.5
4	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidagi qoldiq mablag'lar	1160.0



Xalq deputatlari Bulung'ur  
tuman Kengashining  
2022 yil 30 dekabrda  
VI-75-211-7-93-K/22-son  
qaroriga  
3-ilova

## Tashabbusli budjetlashtirish bo'yicha MA'LUMOT

Bulung'ur tumani

2022-yil dekabr  
2-jadval

T/R	Bajarilgan tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni	Ko'rsatkichlar		
			o'lchov birligi	miqdori	sarflangan mablag'lar (ming.so'm)
1	Hududiy ichki yo'llar	12	umumiy uzunligi km	10 675.0	8 357.1
2	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash	3	soni	2 500.0	2 252.3
3	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	0	soni	0	0
4	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	2	soni	1 050	649.7
5	Boshqa ijtimoiy muassasalarni ta'mirlash va jihozlash	0	soni	0	0
6	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash	1	umumiy uzunligi	490	470.2
7	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish	0	chiroqlar soni	0	0
8	Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish	1	tadbirlar soni	1200	385.0
9	Boshqa tadbirlar	2	soni	1 750.0	485.8
<b>Jami</b>		<b>21</b>	<b>X</b>	<b>17 665.0</b>	<b>12 600.1</b>

Xalq deputatlari Bulung'ur  
tuman Kengashining  
2022 yil 30 dekabrda  
VI-75-211-7-93-K/22-son  
qaroriga  
4-ilova

### Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirilishi yuzasidan

#### MA'LUMOT

Bulung'ur tuman

dekabr 2022 yil

T/r	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga yo'naltirilishi lozim bo'lgan mablag'lar				Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga haqiqatda o'tkazilgan mablag'lar	Farqi	Izoh	
		1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak				
1.	Tuman budjetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foiz qismi miqdorida ajratiladigan mablag'lar	4295,3	4291.7	0	0	8587.0	0	0	
2.	Tuman budjetining qo'shimcha manbalarining 30 foizi miqdorida ajratiladigan mablag'lar	2408.9	601.9	738.0	0	3748.8	0	0	
2.1.	Shu jumladan	erkin qoldiq mablag'lari (30%)	1725,5	0	0	0	1725,5	0	0
2.2.		daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi (30%)	683,4	601.9	738.0	0	2023.3	0	0
2.3.		davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar	0	0	0	0	0	0	0
2.4.		elektron savdo maydonchasida yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan mablag'lar	0	0	0	0	0	0	0
2.5.		budgetdan ajratiladigan mablag'lar kamaytirilishi natijasida bo'shab qolgan mablag'lar	0	0	0	0	0	0	0
3.	<b>Jami ajratiladigan mablag'lar</b>	<b>6 704.2</b>	<b>4 893.6</b>	<b>738.0</b>	<b>0</b>	<b>12335.8</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	



Xalq deputatlari Bulung'ur tuman Kengashining  
2022 yil 30 dekabrda  
VI-75-211-7-93-K/22-son qaroriga  
5-ilova

**“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” dan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g‘olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar yuzasidan**

**MA'LUMOT**

Bulung'ur tumani

2022-yil dekabr

T/R	Tadbirning xos raqami (ID)	Jami to'plan-gan ovozlarni	Shundan			Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Tadbirning moliyalashtirilishi (ming so'm)					
			onlayn ovozlarni	oflayn ovozlarni	SMS orqali		Tadbirni moliyalashtirish uchun ochilgan xisobvaraqlarni	Tadbirning fuqaro tomonidan kiritilgan dastlabki qiymati	Tadbirni amalga oshirish qiymati	Ajratilgan mablag'lar	Bajarilgan ishlar uchun to'lab berilgan mablag'lar	Qoldiq mablag'lar
1.	1070600081	4419	0	0	4419	G'olibdini oilaviy shifokorlik punktini joriy ta'mirlash	401722860182067013990018008	500	500	500	495	5
2.	1070600145	3520	0	0	3520	42-maktabning 4 ta sinf xonasini jihozlash	401722860182067092100075006	600	600	600	503.2	96.8
3.	1070600039	3458	0	0	3458	Asfalt yotqazish	401722860182067065200110015	500	500	500	496.9	3.1
4.	1070600009	3444	0	0	3444	Asfalt yotqazish	401722860182067065200110017	800	800	800	796.2	3.8
5.	1070600090	3186	0	0	3186	Asfalt yotqazish	401722860182067065200110011	900	900	900	899.1	0.9
6.	1070600089	3094	0	0	3094	Asfalt yotqazish	401722860182067065200110012	1200	1200	1200	374.8	825.2

7.	1070600043	3093	0	0	3093	Istirohat bog'ini obodonlashtirish	401722860182067013990018009	1200	1200	1200	380	820
8.	1070600146	3090	0	0	3090	Asfalt yotqazish	401722860182067065200110010	1200	1200	1200	1179.2	20.8
9.	1070600171	3007	0	0	3007	Transformator, beton stolba, kabel xarid qilish	401722860182067013990018008	550	550	550	134.2	415.8
10.	1070600045	2948	0	0	2948	Asfalt yotqazish	401722860182067013990018014	1000	1000	1000	988.2	11.8
11.	1070600031	2943	0	0	2943	Piyodalar yo'lakchasini qurish	401722860182067013990018016	1200	1200	1200	0	1200
12.	1070600085	2861	0	0	2861	Erganakli oilaviy shifokorlik punktini joriy ta'mirlash	401722860182067013990018009	550	550	550	154.7	395.3
13.	1070600058	2265	0	0	2265	Asfalt yotqazish	401722860182067065200110018	1176	1176	1176	360.7	815.3
14.	1070600058	2265	0	0	2265	Asfalt yotqazish	401722860182067065200110019	900	900	900	280.5	619.5
<b>Jami</b>		<b>36182</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>36182</b>	<b>X</b>	<b>X</b>	<b>12 276.0</b>	<b>12 276.0</b>	<b>12 276.0</b>	<b>7 416.5</b>	<b>4859.5</b>

Xalq deputatlari Bulung'ur  
tuman Kengashining  
2022 yil 30 dekabrda  
VI-75-211-7-93-K/22-son  
qaroriga  
6-ilova

**Tuman hokimligi moliya bo'limining 2022-yil fevral va avgust oylarida bo'lib o'tadigan  
"Ochiq budget" jarayonida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" shaxsiy g'azna  
hisobvarag'iga yo'naltiriladigan mablag'lar miqdori bo'yicha ma'lumoti**

Bulung'ur tuman		2022-yil dekabr
T/R	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" mablag'larini shakllantirish manbalari	So'mma (ming so'm)
1	Yil boshiga qoldiq	4157.3
2	Tuman budgetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining foiz qismi miqdorida ajratiladigan mablag'lar 5	8587.0
3	2022-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag'larining 30 foizi miqdorida ajratiladigan mablag'lar	1725.0
4	Bajarilgan ishlardan iqtisod qilingan mablag'lar	1160.0
<b>Jami</b>		<b>15 629.3</b>